

INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING ILMIY METODIK ASOSOLARI

Shokirova Madinabonu Shomurod qizi
Zarmed Universiteti o'qituvchisi

Tayanch tushunchalar: integratsiya, ta'lim-tarbiya, oila, oilaning jamiyatdagi o'rni, oilaning maktab bilan aloqasi, jamoa, ota-ona, shakl va metod, shaxs tarbiyasi, integratsion yondashuv, boshlang'ich ta'lim.

Bugungi zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida integratsiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda tarbiya jarayonida oila va maktab o'rtasidagi integratsiya o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish va ular orasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Yangi O'zbekistonning ta'lim sohasidagi islohotlari, jumladan, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish, o'qituvchilarning ta'limiy va tarbiyaviy malakasini oshirish, oila va ta'lim muasasasi o'rtasidagi munosabatlarni integratsiyalash, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash kabi tadbirlar bu jarayonni yanada samarali qilmoqda.

Ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan ushbu o'zgarishlar, mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi va barkamol avlodni tarbiyalashda yangi imkoniyatlar ochadi. Maqolaning asosiy mavzusi boshlang'ich sinflarda oila va maktab faoliyatini integratsiyalash ya'ni o'quvchi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan choratadbirlar yig'indisi. Tarbiya jarayoni-o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni.

Oilaning yuksak tarbiyaviy ahamiyati. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullabyashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'yantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan

uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi.

Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Istiqloq tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib, yangi xalq va urf-odatlarni guvohi bo'lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g'arb o'smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo'yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda. Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi.

Bola tarbiyasida maktab ta'limi, oila va jamiyatning o'rni beqiyos. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: "Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi", - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil", - deydi alloma.

Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Boshlang'ich ta'limda tarbiyaning maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Bu jarayonda albatta ota-onalarning o'rni juda muhim. Maktablarda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi.

Tarbiyachilar bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog'laydilar. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

1. "Tarbiyaning zamoni".
2. "Badan tarbiyasi".
3. "Fikr tarbiyasi".
4. "Axloq tarbiyasi" haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi.

Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Boshlang'ich ta'lim" va "Oila" nuqtai-nazarida shakllanib boradi. Biz oilani "davlat ichra kichik davlat"- deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shu sababli ota-onalar farzandning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota-onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasini ota-onalar o'z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Shuning uchun ham, tarbiya tushunchasi millat taqdirini belgilab beradi. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Tarixdan ko'pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" A. Avloniyning ushbu so'zlaridan ham tarbiya naqadar muhim ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining predmeti bo'lajak o'qituvchi tarbiyachilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash sanatining qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining o'rganish obyektni esa ta'lim muassalaridagi

uzluksiz ta'lim –tarbiya jarayoni tashkil etadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiya - yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulqatvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, aynipaytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviyaxloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va ananalarga tayanib,ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish ;
- ✓ tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish ;
- ✓ ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish;
- ✓ tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;
- ✓ tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bola tarbiyasi bu jamiya kelajagini, ertasini belgilab beruvchi muhim vazifadir. Tarbiya jarayoni bir tomonlama bo'lsa tarbiya jarayoni bir tomonlama bo'lib qoladi. Qachonki biz bola tarbiyasiga muhim vazifa sifatida qarasak, ham maktab, ham oila hamkorligini mustahkamlasakgina, biz ko'zlangan maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 B.X.Xodjayev . Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: Sano-standart, 2017

- 2 Ишмухаммедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар. Ўқув қўлл. Т.:Фан ва технология, 2010.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abdujalilova SH. Abdurauf Fitratning —Tarbiya” fani talqini. - Toshkent, 2020. - 36 b.
2. Tarbiya kitobi. 1-4-sinflar uchun darslik. -Toshkent, 2020. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T., 2004